
KORXONADA ISHLAB CHIQRILAYOTGAN 24 TURDAGI MEBELLAR KO'RINISHI, DIZAYNI ISTE'MOLCHILAR DIDIGA MOS BO'LMOQDA

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotimiz tayanchi, xalqimiz farovonligining muhim omiliga aylandi. Bozorni raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini ko'paytirishda mazkur sohaning o'rni katta.

Keyingi yillarda Toshloq tumanida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati rivojlanib, ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Tumandagi Xotinqumi mahalla fuqarolar yig'inida faoliyat olib borayotgan "Sofuna" mebel jihozlari ishlab chiqarish korxonasida 30 ga yaqin ishchilar mehnat qilmoqda. Mazkur korxonada bugungi kunda maktab va bog'chalar uchun stol stullar, oshxona va yotoqxon mebellari kabi 24 turdagi mebel jihozlari buyurtma asosida va ichki bozorlarga ishlab chiqarilmoqda.

-Yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarilayotgan zamonaviy mebellar xaridorlarga manzur bo'lmoqda. Ayni paytda korxonada quvvatini oshirish, mahsulot turini ko'paytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha ishlar davom etmoqda,-deydi tadbirkor Mirqodir Boboqulov.

2024-06-08 12:18:04